



## Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-iyun)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021-yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahar korxonalari tomonidan 36,6 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 113,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (73,3 %) ni tashkil etdi.



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 19,2 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 4,0 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 8,2 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatning 12,9 % ga o'sishi kuzatildi.

**\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiylovchi nisbiy ko'rsatkichdir.**



### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvariyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7,2 trln. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 19,7 % ni tashkil etdi.



### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan neft qazib olish 9,2 % ga, chaqiq tosh qazib olish 25,1 % ga oshgan boʻlsa, tabiiy gaz 0,5 % ga, hamda gazli kondensat 0,1 % ga pasaygan.



| Sanoat mahsulotlari                | 2020-yil<br>yanvar-iyun | 2021-yil<br>yanvar-iyun | Farqi<br>+/- |
|------------------------------------|-------------------------|-------------------------|--------------|
| <b>Neft, ming t.</b>               | 299,5                   | 327,0                   | 27,5         |
| <b>Tabiiy gaz, mln.<br/>kub.m.</b> | 17 772,8                | 17 750,1                | -22,7        |
| <b>Gaz kondensati,<br/>ming t.</b> | 387,6                   | 376,1                   | -11,5        |
| <b>Chaqiq tosh, ming t.</b>        | 215,5                   | 269,5                   | 54,1         |




2021-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarish sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 26,8 trln. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 73,3 % ini tashkil etdi.





## Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 8,9 % ni (2020-yilning yanvar-iyun oylarida 4,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali 15,0 % (17,3 %), o'rta-quyi texnologiyali 22,7 % (19,3 %) va quyi texnologiyali 26,7 % (29,5 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi 24,4 % (2020-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi 9,6 % (2020-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 157,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 6,9 % (2020-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 14,9 % (2020-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi 6,2 % (2020-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,7 %) ni tashkil etdi.



## Ishlab chiqarish sanoatida ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati



2021-yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 10,4 ming tn. o'ralgan sim kabellar (2020-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 89,0 % ga ko'paygan), 281,8 ming dona sovutgich va muzlatgichlar (52,1 %.), 9,3 ming tonna trikotaj yoki trikotaj matolarda (47,0 %), 21,1 ming tn. paxtadan yigirlangan ip (89,8 m.k.) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.





## Ishlab chiqarish sanoatida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari                                        | 2020-yil yanvar-iyun | 2021-yil yanvar-iyun | Farqi +/-  |
|------------------------------------------------------------|----------------------|----------------------|------------|
| Oltin gugurt, tonna                                        | 139 616,0            | 129 400,0            | -10 216,0  |
| Karobkalar, gofrali qog'oz yoki kartondan idishilar, tonna | 7 372,5              | 887,8                | -6 484,7   |
| Garmon va antibiotiklardan tashqari dori vositalari, tonna | 200 139,4            | 6 526,6              | -193 612,8 |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.                     | 40,9                 | 18,8                 | -22,1      |
| Sovutgich va muzlatgichlar, dona.                          | 185 288,0            | 281 802,0            | 96 514,0   |



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,0 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (5,3 % ini) tashkil etdi.

2021-yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 80,8 % ni tashkil qildi.





## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari                                           | 2020-yil yanvar-iyun | 2021-yil yanvar-iyun | Farqi +/-  |
|---------------------------------------------------------------|----------------------|----------------------|------------|
| Elektroenergiya,<br>mln.kVt/s                                 | 167,9                | 170,4                | 2,5        |
| Issiqlik energiyasi,<br>ming gkal                             | 7 480,6              | 7 522,5              | 41,9       |
| Elektroenergiya uzatish<br>bo'yicha xizmatlar, ming<br>so 'm. | 581 398,0            | 384 774,0            | -196 624,0 |



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya korxonalarini ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,6 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,6 % ni) tashkil etdi.



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


| Sanoat mahsulotlari                                                                                                                                        | 2020-yil<br>yanvar-iyun | 2021-yil<br>yanvar-iyun | Farqi<br>+/- |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------|-------------------------|--------------|
| Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm<br><br>(Xavfli bo'lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna | 46,4                    | 43,0                    | -3,4         |
| Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm                                                                                                  | 219,2                   | 218,7                   | -0,5         |
|                                                                                                                                                            | 82,4                    | 192,2                   | 109,8        |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo'yicha xizmatlar 0,2 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 7,3 % ga pasayish kuzatildi. Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 13,4 % ga o'shish kuzatildi.



## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 14,3 trln. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 14,8 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 39,0 % ni tashkil etdi.



2020- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2021-yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 63,2 % ni tashkil etdi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 4,7 % (2020- yil yanvar-iyun oylarining mos davriga nisbatan 14,1 % ga o'sgan) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Toshkent shahri jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib, 21,7 % ni, shuningdek, Olmazor tumani 11,8 % ni, Sirg'ali tumani 10,6 % ni, Uchtepa tumani 9,8 % ni, Bektemir tumani 9,3 % ni hamda Chilonzor tumani 8,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Toshkent shahrida o'sish sur'ati (120,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yashnobod (149,1 %), Mirobod (136,9 %), Yakkasaroy (126,1 %) hamda Sirg'ali tumanlarida (124,9 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2021-yilning yanvar-iyun oylarida)**

|                        | Mird. so'm      | Jamiga<br>nisbatan<br>ulushi, % da | O'sish<br>sur'ati, % da |
|------------------------|-----------------|------------------------------------|-------------------------|
| <b>Toshkent shahar</b> | <b>14 270,1</b> | <b>100,0</b>                       | <b>114,8</b>            |
| <b>Uchtepa</b>         | <b>1 403,5</b>  | <b>9,8</b>                         | <b>114,4</b>            |
| <b>Bektemir</b>        | <b>1 333,9</b>  | <b>9,3</b>                         | <b>117,4</b>            |
| <b>Yunusobod</b>       | <b>543,6</b>    | <b>3,8</b>                         | <b>78,0</b>             |
| <b>Mirzo Ulug'bek</b>  | <b>766,0</b>    | <b>5,4</b>                         | <b>109,2</b>            |
| <b>Mirobod</b>         | <b>1 025,3</b>  | <b>7,2</b>                         | <b>136,9</b>            |
| <b>Shayxontohur</b>    | <b>369,0</b>    | <b>2,6</b>                         | <b>89,3</b>             |
| <b>Olmazor</b>         | <b>1 678,7</b>  | <b>11,8</b>                        | <b>121,8</b>            |
| <b>Sirg'ali</b>        | <b>1 513,0</b>  | <b>10,6</b>                        | <b>124,9</b>            |
| <b>Yakkasaroy</b>      | <b>835,8</b>    | <b>5,9</b>                         | <b>126,1</b>            |
| <b>Yashnobod</b>       | <b>3 101,9</b>  | <b>21,7</b>                        | <b>149,1</b>            |
| <b>Yangihayot</b>      | <b>430,7</b>    | <b>3,0</b>                         | <b>103,5</b>            |
| <b>Chilonzor</b>       | <b>1 268,8</b>  | <b>8,9</b>                         | <b>72,1</b>             |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to'g'ri kelib, 23,5 %, shuningdek, Olmazor 15,8 % ni, Sirg'ali tumani 14,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy (164,1 %), Sirg'ali (134,5 %), Bektemir (127,6 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2021-yilning yanvar-iyun oylarida)**

|                        | Mlrd. so'm     | Jamiga<br>nisbatan<br>ulushi, % da | O'sish<br>sur'ati, % da |
|------------------------|----------------|------------------------------------|-------------------------|
| <b>Toshkent shahar</b> | <b>4 577,1</b> | <b>100,0</b>                       | <b>110,5</b>            |
| <b>Uchtemir</b>        | <b>314,7</b>   | <b>6,9</b>                         | <b>95,5</b>             |
| <b>Bektemir</b>        | <b>1 075,5</b> | <b>23,5</b>                        | <b>127,6</b>            |
| <b>Yunusobod</b>       | <b>255,6</b>   | <b>5,6</b>                         | <b>78,4</b>             |
| <b>Mirzo Ulug'bek</b>  | <b>145,0</b>   | <b>3,2</b>                         | <b>75,2</b>             |
| <b>Mirobod</b>         | <b>128,2</b>   | <b>2,8</b>                         | <b>88,3</b>             |
| <b>Shayxontohur</b>    | <b>105,0</b>   | <b>2,3</b>                         | <b>76,6</b>             |
| <b>Olmazor</b>         | <b>721,8</b>   | <b>15,8</b>                        | <b>115,4</b>            |
| <b>Sirg'ali</b>        | <b>676,7</b>   | <b>14,8</b>                        | <b>134,5</b>            |
| <b>Yakkasaroy</b>      | <b>276,7</b>   | <b>6,0</b>                         | <b>164,1</b>            |
| <b>Yashnobod</b>       | <b>326,4</b>   | <b>7,1</b>                         | <b>102,9</b>            |
| <b>Yangihayot</b>      | <b>151,2</b>   | <b>3,3</b>                         | <b>112,7</b>            |
| <b>Chilonzor</b>       | <b>400,4</b>   | <b>8,7</b>                         | <b>95,1</b>             |



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2021-yilning yanvar-iyun oylarida)**

|                        | Mlrd. so'm     | Jamiga<br>nisbatan<br>ulushi, % da | O'sish<br>sur'ati, % da |
|------------------------|----------------|------------------------------------|-------------------------|
| <b>Toshkent shahar</b> | <b>9 017,9</b> | <b>100,0</b>                       | <b>117,1</b>            |
| <b>Uchtemir</b>        | 258,0          | 2,9                                | 88,7                    |
| <b>Yunusobod</b>       | 243,6          | 2,7                                | 73,6                    |
| <b>Mirzo Ulug'bek</b>  | 621,0          | 6,9                                | 122,4                   |
| <b>Mirobod</b>         | 897,1          | 9,9                                | 148,7                   |
| <b>Shayxontohur</b>    | 223,7          | 2,5                                | 94,8                    |
| <b>Olmazor</b>         | 957,0          | 10,6                               | 127,5                   |
| <b>Sirg'ali</b>        | 778,5          | 8,6                                | 119,7                   |
| <b>Yakkasaroy</b>      | 559,1          | 6,2                                | 113,3                   |
| <b>Yashnobod</b>       | 2 248,3        | 24,9                               | 174,8                   |
| <b>Yangihayot</b>      | 279,4          | 3,1                                | 88,7                    |
| <b>Chilonzor</b>       | 863,5          | 9,6                                | 64,6                    |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib, 24,9 % ni, shuningdek, Uchtemir 12,1 % ni, Olmazor 10,6 % ni, Mirobod 9,9 % ni, Chilonzor 9,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Yashnobod (174,8 %), Mirobod (148,7 %), Olmazor (127,5 %), Mirzo Ulug'bek (122,4 %) tumanlarida qayd etildi.




**Toshkent shahri hududlari kesimida  
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

|                        | <b>2021- yil<br/>yanvar-iyun<br/>mldr. so‘m</b> | <b>Fizik hajm<br/>indeksi, % da</b> |
|------------------------|-------------------------------------------------|-------------------------------------|
| <b>Toshkent shahar</b> | <b>36 630,2</b>                                 | <b>113,8</b>                        |
| Uchtepa                | 2 528,3                                         | 110,4                               |
| Bektemir               | 2 411,8                                         | 102,4                               |
| Yunusobod              | 1 868,3                                         | 82,0                                |
| Mirzo Ulug‘bek         | 2 263,9                                         | 98,6                                |
| Mirobod                | 3 060,5                                         | 102,6                               |
| Shayxontohur           | 2 361,3                                         | 113,6                               |
| Olmazor                | 2 528,0                                         | 112,5                               |
| Sirg‘ali               | 3 231,8                                         | 113,3                               |
| Yakkasaroy             | 2 171,7                                         | 105,0                               |
| Yashnobod              | 11 038,5                                        | 112,3                               |
| Yangihayot             | 536,2                                           | 98,6                                |
| Chilonzor              | 2 629,8                                         | 113,2                               |



**Toshkent shahar hududlar kesimida ishlab  
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari  
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**


Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksida kamayish kuzatilmadi, lekin Yunusobod (2020-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 78,5 %), Mirzo Ulug'bek (98,2 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligini izohlashimiz mumkin.



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Toshkent shahrida o'sish sur'ati (120,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yashnobod (149,1 %), Mirobod (136,9 %), Yakkasaroy (126,1 %) hamda Sirg'ali tumanlarida (124,9 %) qayd etildi.



## Toshkent shahar jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da




Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Yashnobod (shahar sanoat ishlab chiqarish hajmning 30,1 %), Sirg'ali (8,8 %), Mirobod (8,4 %), Uchtepa (6,9 %) hamda Olmazor (6,9 %) tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Yangihayot (1,5 %) hamda Yunusobod (5,1 %) tumanlarga to'g'ri kelmoqda.



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2021-yil yanvar-iyun oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirdorlik subyektlari tomonidan 12,1 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 33,0 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangihayot tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (75,8 %), Olmazor tumanida (71,5 %), Chilonzor (61,0 %), Yunusobod tumanida (51,7 %), Sirg’ali (47,9 %), Yakkasaroy (37,2 %), Mirzo Ulug’bek (33,6 %) tumanlarida kuzatildi.

Toshkent shahar hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko’rsatdiki, Yashnobod (15,0 %), Mirobod (20,0 %) va Shayxontohur (20,7 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



## **Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini (2021-yil 1-iyul holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda Toshkent shahrida 16,4 mingta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2,2 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 13,3 %) Olmazor tumaniga, 2,0 mingtasi (12,3 %) Chilonzor tumaniga, 1,9 mingtasi (11,7 %) Uchtepa tumaniga, 1,8 mingtasi (10,9 %) Yunusobod tumaniga, 1,5 mingtasi (9,0 %) Shayxontohur tumaniga, 1,4 mingtasi (8,3 %) Mirzo Ulug'bek tumaniga to'g'ri kelmoqda.





2021-yilning yanvar-iyun oylarida shaharda 1 186 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 139 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 11,7 %) Chilonzor tumanida, 131 tasi (11,0 %) Olmazor tumanida, 120 tasi (10,1 %) Shayxontohur tumanida, 119 tasi (10,0 %) Yunusobod tumanida, 114 tasi (9,6 %) Uchtepa tumanida, hamda 113 tasi (9,5 %) Yashnobod tumanida tashkil etildi.



## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari (2021- yil 1-iyul holatiga ko'ra)

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar Olmazor (2 190 ta), Chilonzor (2 027 ta), Uchtepa (1 920 ta), Yunusobod (1 795 ta) hamda Shayxontohur (1 471 ta) tumanlarida qayd etildi.



2021-yilning 1-iyul holatiga ko'ra Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar esa Bektemir (530 ta), Yangihayot (573 ta), Mirobod (945 ta), Sirg'ali (1 032 ta), Yakkasaroy (1 253 ta), Yashnobod (1 329 ta) tumanlarida qayd etildi.



**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab  
chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi  
(2021-yil yanvar-iyun holatiga ko'ra)**

Respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 309 ta loyiha bo'yicha 3 823,5 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 57,4 mln. AQSH dollari miqdorida mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi.

2021-yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan ish o'rirlari soni 1 251 tani tashkil etdi. Shu bilan birga, 2020-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan mahalliylashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmi 57,3 foizga oshdi

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni  
mahalliylashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari**

|                                                                                    | 2020-yil yanvar-iyun | 2021-yil yanvar-iyun |
|------------------------------------------------------------------------------------|----------------------|----------------------|
| Loyihalar soni, birlik                                                             | 175                  | 309                  |
| Korxonalar soni, birlik                                                            | 77                   | 104                  |
| Ishlab chiqarish hajmi, mlrd.<br>so'm"                                             | 2 949,1              | 3 823,5              |
| Eksportga qilingan<br>mahalliylashtirilgan<br>mahsulot hajmi, mln. AQSH<br>dollar" | 36,5                 | 57,4                 |
| Yaratilgan yangi ish o'rirlari,<br>birlik                                          | 514                  | 1 251                |

**Sanoat statistikasi  
bo'limi**  
Tel.: (71) 203-88-16